



## REGULATORY AND LEGAL BASIS OF RAISING THE POLITICAL CULTURE OF YOUNG PEOPLE IN UZBEKISTAN

**Daniyor Yuldashev**

*Researcher*

*Doctoral student of the National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** youth, youth policy, education, upbringing, political culture.

**Received:** 08.08.23

**Accepted:** 10.09.23

**Published:** 12.09.23

**Abstract:** In this article, the content and essence of the reforms that should be carried out in this field are analyzed. Also, there are opinions about the reforms being carried out in the education system in order to improve the political culture of young people.

## O'ZBEKİSTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNI ME'YORİY-HUQUQİY ASOSLARI

**Daniyor Yuldashev**

*Tadqiqotchi*

*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** yoshlar, yoshlar siyosati, ta'lif, tarbiya, siyosiy madaniyat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarida siyosiy madaniyatni yuksaltirishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjarlar, mazku sohada olib borilishi lozim bo'lgan islohotlarning mazmun-mohiyati taxlil qilingan. Shuningdek, yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan ta'lif tizimida olib borilayotgan islohotlar yuzasidan fikrlar keltirilgan.

## НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА ПОВЫШЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

**Даниёр Юлдашев**

*Исследователь*

*Докторант Национального университета Узбекистана  
Ташкент, Узбекистан*

**О СТАТЬЕ**

<b>Ключевые слова:</b> молодежь, молодежная политика, образование, воспитание, политическая культура.	<b>Аннотация:</b> В данной статье анализируется содержание и суть реформ, которые следует провести в этой сфере. Также есть мнения о реформах, проводимых в системе образования с целью повышения политической культуры молодежи.
---	---

**KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston yoshlari forumi hamda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida yosh avlod manfaatlariga qaratilgan muhim g‘oya va tashabbuslarni ilgari surgan edi. Aynan, mana shunday muhim muhim g‘oya va tashabbuslardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2021 yil – «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» deb e’lon qilindi. Shu o‘rinda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha yangi tizimni joriy etish borasida dolzarb vazifalar belgilab olindi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev «...Yoshlar bo‘yicha mutasaddilar, hokimlarning yoshlar bo‘yicha o‘rnbosarlari, ichki ishlar bo‘limi rahbari o‘rnbosarlari bor. Pastda tizim yaratilgan. Lekin ming afsus, biz kutgan natija bo‘lmagani uchun mana shunday tizim qilyapmiz» – deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir.

**ASOSIY QISM**

Yoshlar siyosati bu davlatning demokratik taraqqiyot rivojlanishida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, ularning mavjud demokratik muhitga to‘g‘ri moslashuviga yo‘naltirilgan qonunchilik va ijro etish xususiyatining yig‘indisi hamda o‘zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to‘liq bajarishidir. Yosh avlod vakillarining manfaatini, boshqa ko‘pchilik qatlamlar vakillarining manfaatiga qarshi qo‘ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg‘unlashtirish – yoshlar siyosatining asosiy vazifasidir. Shuni alohida qayd etish joizki, yoshlar masalalariga alohida e’tibor qaratish va ularni muammolarini o‘rganish jamiyat taraqqiyotida yoshlarning o‘rnini belgilash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini yanada yuksaltirishga zamin yaratadi. Jamiyatni isloh qilishning hozirgi sharoitida yoshlarga o‘z bilimlarini mustaqil egallashi, ongida professionalizm va bilimdonlikni mustahkamlash o‘z tafakkuri asoslarini shakllantirishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlearning ma’naviy- ma’rifiy ehtiyojlarini o‘rganish va ularni bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish, ularning g‘ayrat-shijoatidan mamlakatimizning umumiyl manfaatlarni amalga oshirishda foydalanish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda jamiyatni barcha qatlamlarini safarbar etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatiga mustaqillikning dastlabki yillaridayoq asos solingan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tgan davr mobaynida bu borada qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, yoshlearning intilish va iqtidorlarini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlanirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha mustahkam tizim yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasida, siyosiy partiya fraksiyalarida o‘tkazilgan 20 dan ortiq yig‘ilishlarda 500 nafarga yaqin yoshlar o‘zlarining 30 ga yaqin takliflari bilan qonunlar muhokamalarida ishtirok etishiga imkon yaratilgan. Mamlakatimiz rahbariyatining tashabbusi va amaliy ko‘magi asosida yoshlar masalalariga oid Yoshlar ishlari agentligi faoliyatiga doir yuzlab qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Bu borada, eng avvalo, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi qonuni 2016-yil 15-sentabrda qabul qilinganligini alohida e’tirof etish zarur. Mazkur qonunning maqsadi davlat xalq manfaatlarini ko‘zlab, respublika yoshlarining ijtimoiy hamda ma’naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirishdan iborat. Ushbu qonunning qabul qilinishi bilan yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi tushuncha mamlakatning qonunchilik tizimiga rasman kiritildi. Mazkur qonun bilan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlari tuzilmalarining vazifalari belgilab berildi. Shuningdek, yoshlar siyosatiga oid davlat dasturlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilina boshlandi. Sobiq sovet ittifoqi davrida yoshlar siyosati asosan mafkuraviy xarakter kasb etib, u davlat siyosatining alohida yo‘nalishi sifatida ajratib ko‘rsatilmas hamda alohida atama sifatida qo‘llanilmas edi.

Binobarin, yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkonli boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahriri O‘RQ-406-son qonuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yilning 12 avgustida qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan 2016 yilning 24 avgustida ma’qullangan. Ushbu qonun rasmiy e’lon qilingan kundan, ya’ni 2016 yilning 15 sentyabrdan qonuniy kuchga kirgan. Mazkur qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ma’lumki, mazkur qonun 4 bob, 33 moddadan iborat bo‘lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan. Unda belgilangan normalarda yoshlar huquq va erkinliklari ta’milangan.

Ushbu qonunning asosiy maqsadi yoshlarga oid davlat siyosati munosabatlarini tartibga solishdan iborat bo‘lib, qonunda yoshlar bo‘yicha davlat siyosatining maqsadi va tamoyillari, yoshlarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasi, ta’lim olish huquqlari, iqtidorli yoshlarga nisbatan davlat ko‘magini amalga oshirish kabi dolzarb masalalar qamrab olingan. Xususan, ushbu qonunning 5-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Ushbu yo‘nalishlarda davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida qanchalik ulkan vazifalar qamrab

olinganligini, endilikda mazkur qonun yoshlarga qanday imkoniyatlarni kafolatlayotganligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Shuningdek, qonunda yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘sishimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o‘z aksini topgan. Jumladan, diyorimizda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o‘tkazilganligi, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo‘yicha Ahmad Farg‘oniy, kimyo fani bo‘yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo‘yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek nomidagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilganligi iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning alohida namunalari sifatida aytib o‘tish o‘rinlidir.

Bundan tashqari, Prezident, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medallarning joriy etilgani, fan olimpiadasi g‘oliblari, Zulfiya, «Mard o‘g‘lon», «Kelajak buniyodkori» kabi davlat mukofotlari joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyligidan va bugungi kunda uning ijrosi to‘liq ta’minlanayotganidan dalolat bermoqda.

Bizning fikrimizga ko‘ra, qonunning ahamiyatli tomoni yana shundaki, unda yoshlarning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illatlar ta’siridan himoya qilish, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi doirasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tuzilib, yoshlar biznes tashabbuslarini, startap, g‘oya va loyihibarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko‘rsatish hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlar amalga oshirilgan. Shuningdek, dastur doirasida yosh tadbirkorlarning biznes tashabbuslarini, startap, g‘oya va loyihibarini amalga oshirishda maslahat, huquqiy, buxgalteriya va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, forumlar, master klass hamda seminarlar tashkil etish maqsadida «Yosh tadbirkorlar» kovorking markazlari ham amaliy yordamga yo‘naltirildi.

Ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi chora-tadbirlar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda tuman va shaharlarda ushbu hududlar prokurorlari boshchiligidagi, tuman hokimining yoshlar siyosati bo‘yicha o‘rnbosari, ichki ishlari bo‘limi boshliqlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rnbosarlari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tuman va shahar kengashlari raislari hamda tadbirkorlikka ko‘maklashish markazlarining rahbarlari ishtirokida yosh tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha komissiyalar tuzish belgilab qo‘yilgan. Besh tashabbusning har bir yo‘nalishini tuman va shaharlarda tizimli amalga oshirish

bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Yoshlarimiz uchun, ayniqsa, qizlarimizning yanada ilmli bo‘lishlari uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o‘qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko‘tarilgan bo‘lsa, endilikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga davlat oliy ta’lim muassasalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat bojxona qo‘mitasining oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozlar belgilangan. Jumladan, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta’minalash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlariga tavsiyanoma asosida Oliy ta’lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o‘qishga kirish imtiyozi berilgan. Bu imtiyoz yoshlar uchun kutilmagan e’tibor, ularda vatanparvarlik va ota-onasiga nisbatan yanada g‘urur va iftixor baxsh etganining guvohimiz. Chunki mazkur tavsiyanoma va taqdimmomalarning amal qilish muddati uch yil deb belgilanishi ham hikmatli qadamdir.

Shu o‘rinda O‘zbekistonda yoshlar ta’limi, tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini eslatib o‘tgan holda, dastlab 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinganligini alohida ta’kidlash lozimdir. Qonunning yangi tahriri Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan bo‘lib, 2020-yil 7-avgustda Senat tomonidan ma’qullangan. 2020-yil 24-sentabrdan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuning maqsadi fuqarolarga, xususan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilashdan iborat bo‘lib, har kimning bilim olish bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqini ta’minalashga qaratilgan. Qonunning yangi tahriri Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan bo‘lib, 2020-yil 7-avgustda Senat tomonidan ma’qullangan. 2020-yil 24-sentabrdan e’tiboran kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga kirish, shuningdek, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishni ko‘chirish va qayta tiklash uchun hujjatlarni topshirish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshirilishi ham yoshlar uchun yaratilgan eng maqbul imkoniyatdir. Bu O‘zbekistonning kelajagi yoshlarimizning umid yulduzidir. Prezidentimiz 2019-yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuvida Yoshlar ittifoqi negizida Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish tashabbusi, o‘sib kelayotgan avlod auditoriyasiga yo‘naltirilgan tele- va radiokanallar, bosma nashrlarni birlashtirib, «Yoshlar media xoldingi» tashkil etish taklifi ayni muddao bo‘ldi. Albatta, hayotda yoshlar nimani ko‘rsa, albatta, unga ishonadi va

ergashadi. Xususan, o‘tgan yillar davomida yoshlarga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi 20 dan ortiq qonun, 30 dan ortiq farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 100 ga yaqin qarorlari qabul qilindi. Xususan, qonun hujjatlarida yoshlar uchun mustahkamlab qo‘yilgan qo‘sishimcha kafolatlar: bepul umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi olish, ta’lim muassasalarida o‘qishga imtiyozli kreditlar taqdim etish, ta’lim muassasalarini bitirganidan keyin yoshlarning bandligini ta’minalash, yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minalash, yoshlarning dam olish va sog‘lomlashtirish tashkilotlari tizimini rivojlantirish va boshqa shu kabi muhim masalalar alohida moddalarda ko‘rsatilgan. Shuningdek, mazkur qonun orqali mukofotlar, stipendiylar belgilash, ta’lim grantlarini taqdim etish, fan, madaniyat va san’at sohasida ijodiy ustaxonalar va maktablarni tashkil etishga ko‘maklashish, sport seksiyalari faoliyatini tashkil etish orqali iste’dodli yoshlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ham tartibga solmoqda.

Umuman, mamlakatimizda eng katta e’tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu vazifa nafaqat O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonunida, shuningdek, 2017 yil 5 iyuldagagi PF-5106-sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son «Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni va boshqa ko‘plab qonun hujjatlarida ham belgilangan.

Darhaqiqat, yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida hamda bu borada keng jamoatchilik, avvalo, yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini e’tiborga olgan holda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug‘ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar: ish o‘rinlari yaratish va yoshlar bandligini ta’minalash maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining vazifalariga muvofiq 2018-yil 27-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5466-son «Yoshlar — kelajagimiz» davlat dasturi to‘g‘risida Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq davlat dasturi doirasida: O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida «Yoshlar - kelajagimiz» jamg‘armasini tashkil etish,

ushbu jamg‘arma hisobidan Davlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirish, yoshlarning qayta tayyorlanishi va malaka oshirishini tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, shuningdek, ularga biznes yuritish ko‘nikmalarini singdirish kabi muhim amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va samaradorligini oshirish maqsadida 2020-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmon qabul qilindi. Mazkur farmon natijasida O‘zbekistonda 30 iyun - «Yoshlar kuni» deb e’lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarmizni rag‘batlantirib borish maqsadida «Mard o‘g‘lon» davlat mukofoti va «Kelajak bunyodkori» medali ta’sis etildi. Yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonligini oshirish, yoshlarni o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minalash vazifalarini o‘z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni amalga oshirish hamda yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta’minalash, voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g‘oyasi hamda qat’iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Mazkur farmon asosida 2020-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Mazkur qaror doirasida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo‘limlari tashkil etilib, ularning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonunida belgilangan talablarga ko‘ra O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tilgan. Ayni o‘rinda ijtimoiy tizimga yoki bu tizimning qismi sifatida yoshlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan yoki bilvosita uning amal qilish sharoitida siyosat subyekti sifatida yoshlarni rivojlanishga undovchi boshqaruv jarayonidagi yoshlarga oid davlat siyosati o‘rtasidagi obyekt va subyekt munosabatlari aniqlanadi.

«Yoshlarning status va rollar tizimiga kirib borishi ularning ijtimoiylashuviga jamiyat tomonidan bo‘ladigan qarshilikni yengib o‘tish jarayoni bilan birgalikda kechadi». «Yoshlarning jamiyat tuzilmasidagi o‘ziga xos jihatlari, ijtimoiylashuv institutlari bilan o‘zarot ta’sirlarining xarakteri, o‘zgacha submadaniyatga mansubligi, alohida xususiyatlariga ko‘ra ajralib turadigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari, yoshlarni tashkilotlarining o‘ziga xos shaklga ega ekanligi singari qator omillar yoshlarni va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarning manbai hisoblanadi». Shuningdek,

«obyekt-subyekt munosabatida yoshlarning uch xil tuzilmaviy guruhlari, shu bilan aloqador tarzda, mavjudligiga ko‘ra bir-biridan keskin farq qiluvchi hayotiy masalalarini hal qilishga oid uch xil yondashuvlarni ajratib ko‘rsatadilar. Ular nofaol, mo‘tadil va faol guruh va munosabatlardan iborat».

Shuni nazarda tutgan holda subyektliga tamoyiliga tayanuvchi yoshlar muammolariga oid tadqiqotlarda ijtimoiy faol yoshlar qatlami, ayniqsa uning ijodiy potensialiga alohida diqqat qaratish talab qilinadi. Shuningdek, mazkur tahlil jarayonida ijtimoiy faol yoshlar qatlami jamiyat doirasida mavjud bo‘luvchi odatdagi guruh emas, balki, u ijodiy imkoniyatlariga ko‘ra borliq tuzilmasining tarkibiy elementi ekanligini hisobga olish lozim. Ijtimoiy hayotning ma’naviy va moddiy sohasidagi har qanday yangiliklar, xususan, mehnat munosabatlariga moslashish bu turdagil yoshlar mo‘ljallarining asosiy xususiyatlariga aylanib boradi. Professional faoliyatning mazkur komponentlari o‘zida intigrativ yaxlitlik ya’ni, umumiy maqsadlar, umumiy prinsiplar va ichki organik birlikni aks ettiradi. Ijtimoiy faol yoshlarning yangilanishlar jarayonidagi muhim rollarining tan olinishi ularning shaxsiy va professional imkoniyatlarining o‘sishiga olib keladi. «Bunday turdagi professional faoliyat imkon qadar byurokratik to‘siqlardan holi bo‘lmog‘i lozim».

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga oid davlat siyosati turli ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi tadqiqotlar uchun predmet vazifasini o‘tay oladi. Uni tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlarning xilma-xilligi ham yoshlarga oid davlat siyosatining sohalararo tadqiqot predmeti bo‘la olishlik xususiyati bilan farqlanadi. Shunga ko‘ra, yoshlarga oid davlat siyosatini tadqiq etishga qaratilgan qadriyatiy-me’yoriy, tizimli va tuzilmaviy-funksional, institutsional, sotsiologik, antropologik psixologizm, bixevoiristik hamda siyosiy xulq-atvori, siyosiy madaniyatini emperik tadqiq etishga qaratilgan statistik, hujjat tahlili, anketa so‘rovnomasasi, laboratoriya eksperimenti, ish o‘yini, kuzatish ko‘plab nazariy-metodologik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yoshlar bandligini ta’minalash va bo‘sh vaqtlanini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 27.01.2021. // <https://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/8177>

2. Xolmaxmatov A. H. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning mexanizmlari va texnologiyalari / Azim Hazratqulovich Xolmaxmatova. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziligi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. Siyosiy fan. falsafa doktori dis.: 23.00.02 - Toshkent, 2019. –B. 180.

3. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2022 y., 03/22/747/0064-son.

4. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.

5. Yoshlar media xoldingini tashkil qilish uchun 46 mlrd so‘m ajratish taklif qilinmoqda // <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/18/mediaholding/>

6. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.07.2017 yildagi PF-5106-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022 y., 06/22/258/1064-son.

7. «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2018 yildagi PF-5466-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2022 y., 06/22/101/0288-son.

8. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloq qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.06.2020 yildagi PF-6017-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022 y., 06/22/258/1064-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.06.2020 yildagi PQ-4768-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 y., 07/22/92/0046-son.

10. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me’oriy hujjatlar (I qism). – T: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. –B. 34-45.

11. Tulenova G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa f. dok. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. –B.109.

12. Qodirova Z. Формирование толерантности у молодёжи основа построения гражданского общества в Узбекистане // «Milliy istiqlol g‘oyasi: millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni o‘quvchi va talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Т.: 2006, В.164-166.

13. Sogomonov A.Yu. Феномен «революции притязаний» в культурно-историческом контексте / A.Yu. Sogomonov // V kn.: Революция притязаний и изменение жизненных стратегий молодежи: 1985-1995 gg. / Pod red. V.S. Maguna / Институт социологии РАН. - М.: Изд-во Института социологии РАН, 2008. - S. 107.

14. Луке Г.А. Социалное инновационное проектирование в региональной молодежной политике / Г.А. Луке.- Самара: Самар. Ун-т, 2013. - С. 32.